

«TASDIQLAYMAN»
"Hududgazta'minot" AJ
Boshqaruv raisi M.Xodjayev
« 7 » mart 2025 y.

**"Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyatining mehnatni muhofaza qilish,
sanoat xavfsizligi sohasidagi siyosati**

"Hududgazta'minot" AJ va uning hududiy filiallarining faoliyati Respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. "Hududgazta'minot" AJ Respublikaning eng yirik gaz ta'minoti korxonasi bo'lib, tabiiy va suyultirilgan gaz iste'molchilarini gaz bilan ta'minlovchi eng yirik energetika korxonalaridan biri sifatida, o'z ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, shu jumladan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, sanoat va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish borasida jamiyat oldidagi mas'uliyatini to'liq anglab yetadi.

"Hududgazta'minot" AJ va uning gaz ta'minoti filiallaridagi xodimlarning hayoti va sog'lig'ini ta'minlashni ustuvor vazifa deb biladi. Shuningdek, mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi ishlab chiqarish faoliyatini samarali boshqarishning zaruriy tarkibiy qismlari sifatida qaraydi.

Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi sohalaridagi maqsadlari

"Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy filiallarining mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi sohalaridagi asosiy maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ishchilarning hayoti va salomatligini muhofaza qilish;

- xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya va baxtsiz hodisalar xavfini kamaytirish;

- ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari xavfini kamaytirish;

- yong'in xavfsizligini ta'minlash.

Baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari, avariya, baxtsiz hodisalar, yong'inlar, yo'l-transport hodisalarining oldini olish orqali maqsadlarga erishiladi:

- xavflarni aniqlash;

- ishlab chiqarish xavfsizligi sohasidagi xavf-xatarlarni baholash va boshqarish;

- xodimlar va ularning vakillarining malakasini oshirish, ularni ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish tizimiga jalb etish orqali.

Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi hamda yo'l harakati xavfsizligi sohalaridagi majburiyatlar. Belgilangan maqsadlarga erishish uchun "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati va uning gaz ta'minoti filiallari quyidagi majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar:

- ishlab chiqarish jarohatlanishi, kasb kasalliklari, avariya ko'rsatkichlarini doimiy ravishda pasaytirish, shuningdek ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq yong'inlar, yo'l-transport hodisalari xavfini minimallashtirish;

- ishlab chiqarish xavfsizligi sohasidagi Respublika va korporativ darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlash;

- ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish tizimining samarali ishlashini va uzluksiz takomillashtirilishini ta'minlash, shu jumladan ishlab chiqarish xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish;

- ishlab chiqarish xavfsizligi sohasidagi xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirish, xodimlarning jarohatlanishi, sog'lig'ining yomonlashuvi, asbob-uskunalar va mol-mulkning shikastlanishining oldini olish maqsadida xavf-xatarlarni boshqarishni ta'minlash;

- ishlab chiqarish xavfsizligi sohasidagi xavf-xatarlarni bartaraf etish va kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil hamda uzluksiz bajarilishini ta'minlash;

- ishlab chiqarish xavfsizligi sohasidagi ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar va usullarni joriy etishni ta'minlash;

- xodimlar va ularning vakillarini ishlab chiqarish xavfsizligi talablarini ta'minlash, sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha faoliyatda faol ishtirok etishga jalb etish;

- ishlab chiqarish xavfsizligi sohasida xodimlarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish;

- ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, moliyaviy, kadrlar va moddiy-texnik resurslarni ta'minlashni ko'zda tutish;

- "Hududgazta'minot" AJ va uning gaz ta'minoti filiallari manfaatlari yo'lida faoliyat yurituvchi ta'minotchilar va pudratchilardan ishlab chiqarish xavfsizligi sohasidagi qonuniy-me'yoriy hujjatlar hamda normativ talablarga to'liq rioya etishlarini talab qilish.